

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**XIZMAT FAOLIYATINI TARBIYAVIY-PSIXOLOGIK  
TA'MINLASH KAFEDRASI**



**MEN ALBATTA HARBIY  
BO'LAMAN...**

**uslubiy qo'llanma**

**Toshkent - 2024**

**“Men albatta harbiy bo‘laman...” nomli uslubiy qo‘llanma.** – O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti – T.: Jamoat xavfsizligi universiteti nashriyoti, 2024-yil 36-bet.

**Tuzuvchi:** - falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent D.M. Mamatkulov  
Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:** - falsafa fanlari doktori, professor K.J.Tulenova  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori, professor  
- polkovnik K.A.Azizov  
Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi katta o‘qituvchisi

Mazkur uslubiy qo‘llanmada yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, ularni kasb tanlash hamda harbiy soha mutaxassisliklariga yo‘naltirishga qaratilgan ta’limiy-tarbiyaviy usullar hamda didaktik o‘yinlarning ilmiy-nazariy va tashkiliy-pedagogik jihatlari yoritilgan. Uslubiy qo‘llanmada Vatan tushunchasi va Milliy Armiyamiz tarixi, Vatan himoyachilari mavzusida o‘tkaziladigan tarbiyaviy soat ishlanmasi va tadbir ssenariysi hamda harbiylashtirilgan o‘yin-musobaqalarni tashkil etish metodikalari bo‘yicha namunalar keltirilgan.

Mazkur uslubiy qo‘llanma umumiyl o‘rta ta’lim mакtablarining o‘qituvchi va tarbiyachilari hamda mакtab bilan hamkorlikda faoliyat olib boradigan soha mutaxassislariga mo‘ljallangan.

Uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Metodik Kengashining 2024-yil 28-fevraldagи 6-son bayonнома qarori bilan tasdiqlanib, nashrga tavsiya etilgan.

© “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi, 2024-yil.

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>4</b>
1.1-§. Vatan tushunchasi va Milliy Armiyamiz tarixi («Vatan himoyachilari kuni»da so‘zlanadigan nurq loyihasi).....	6
1.2-§. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida «Vatan himoyachilari» mavzusida o‘tkaziladigan bir soatlik tarbiyaviy soat ishlanmasi.....	14
1.3-§. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 14-yanvar «Vatan himoyachilari kuni»ga bag‘ishlab o‘tkaziladigan «O‘zbekiston askarlari» nomli tadbir ssenariysi.....	19
1.4-§. «Men askar bo‘laman» o‘yin-musobaqasi dasturi.....	24
1.5-§. «Bo‘lajak Vatan posbonlari» o‘yin-musobaqasi dasturi.....	30
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....</b>	<b>36</b>

## Kirish

«O‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham,  
mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi»  
**Shavkat Mirziyoev**



Yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ygan O‘zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi inson va uning manfaatlari, xavfsizligi va farovonligini ta’minlashga qaratilgandir. O‘zbekiston mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyingi qisqa vaqt ichida bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘li asrlarga arzигуллик мазмун ва мөhiyat kasb etmoqda.

Ma’lumki, taraqqiyotni harakatga keltirishda va jamiyatda ro‘y berayotgan jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazishda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy yangilanishining muhim sub’ekti bo‘lgan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida – barkamol shaxs qilib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Ushbu uslubiy qo'llanmaning maqsadi ta'lim muassasalarida ta'limiylar va tarbiyaviy ishlardan bilan shug'llanuvchi pedagoglarga yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni kasb tanlash, harbiy soha mutaxassisliklariga yo'naltirish jarayonida qo'llaniladigan usullar va didaktik o'yinlar haqida ma'lumot berish, ulardan amaliyotda foydalana olishlariga zamin yaratishga yo'naltirilgan.

Uslubiy qo'llanmada Vatan tushunchasi va Milliy Armiyamiz tarixi («Vatan himoyachilari kuni»da so'zlanadigan nurq loyihasi), Vatan himoyachilari mavzusida o'tkaziladigan tarbiyaviy soat ishlanmasi va tadbir ssenariysi hamda harbiylashtirilgan o'yin-musobaqalarni tashkil etish metodikalari bo'yicha namunalar keltirilgan. Uslubiy qo'llanma o'quvchi-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o'zining ijobiy samarasini beradi, deya umid qilamiz.



## **1.1-§. Vatan tushunchasi va Milliy Armiyamiz tarixi (**«Vatan himoyachilari kuni»da so‘zlanadigan nurq loyihasi**)**

Vatan – bu insonga ato etilgan eng qutlug‘ ne’mat, halol nasibamiz, ajdodlarimiz uyg‘oq ruhi kezib yurgan tabarruk go‘sha, ularning nafasi ufurib turgan muqaddas tuproqdir, shoir ta’biri bilan aytganda otalarmizdan qolgan, avlodlarimizga qoldirajak muqaddas merosdir! Vatan unga bo‘lgan muhabbatdan yuksaladi. Vatan asl vatanparvarlar ko‘ksida himoya topadi.

Xalqimizda “Yaxshi niyat – yarim davlat” degan chiroyli bir hikmat bor. Yoshi ulug‘larimiz duolarining so‘nggida yaxshi niyatlareringiz hamrohingiz bo‘lsin, degan gapni aytishni kanda qilishmaydi. Darhaqiqat, bizning diyorimizda har kun, har soat, har bir qilinajak amallarimiz ezgu tilaklar bilan boshlanadi. Duoga ochilgan qo‘llar esa, eng avvalo, yurt tinchligini, osmon musaffoligini so‘raydi. Tinchlik, osoyishtalik, shubhasiz, har bir O‘zbekistonlik fuqaro uchun oliy ne’matdir.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq mamlakatimizning moddiy va ma’naviy boyliklarini, diyorimizning xavfsizlik va hududiy yaxlitligini himoya qiluvchi barqaror demokratik rivojlanishning ishonchli va mustahkam kafolati bo‘la oladigan milliy armiyani shakllantirish davlat siyosatining bosh omiliga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 6-sentabrdagi farmoniga asosan Mudofaa ishlari vazirligi tashkil qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini shakllantirishning huquqiy asoslarini yaratishga kirishildi. Mudofaa ishlari vazirligi zimmasiga umumiy

safarbarlik, Milliy gvardiyani tuzish, fuqarolar mudofaasini amalga oshirish kabi mas’uliyatli vazifalar yuklatildi. 1992-yil 14-yanvar kuni Respublika Oliy Kengashining «O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o‘quv muassasalari to‘g‘risida» tarixiy qarori qabul qilindi va unga ko‘ra, mamlakatimiz hududidagi harbiy tuzilmalar respublika tasarrufiga olindi.

1992-yil 14-yanvar kuni mustaqil davlatimiz tarixidagi yana bir muhim qadam quyildi. Shu kuni mamlakatimiz hududidagi barcha Qurolli Kuchlarni O‘zbekiston yurisdiksiyasiga o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. 1992-yil 14-yanvar kuni esa mustaqil davlatimiz tarixidagi yana bir muhim qadam quyildi. Shu kuni mamlakatimiz hududidagi barcha Qurolli Kuchlarni O‘zbekiston yurisdiksiyasiga o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilindi va ushbu sanani har yili bayram sifatida nishonlash an'anaga aylandi.

1992-yil 24-mart O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan chegara qo‘sishlari bo‘linmalari haqida»gi Farmoniga muvofiq respublika Milliy xavfsizlik xizmati qoshida Chegara qo‘sishlari boshqarmasi tashkil etildi. 1992-yil 3-iyul O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n ikkinchi chaqiriq o‘ninchı sessiyasida «Mudofaa to‘g‘risida», «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida», «Muqobil xizmat to‘g‘risida»gi Qonunlari qabul qilindi, Harbiy qasamyodning yangi matni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Mudofaa ishlari vazirligini O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga aylantirish to‘g‘risidagi Farmoni tasdiqlandi.

1992-yil 12-iyul Mudofaa vazirining buyrug‘iga muvofiq ilk bor muddatli harbiy xizmatchilar yangi qabul qilingan Harbiy Qasamyod matni asosida sadoqat ontini ichishdi.

Qurolli Kuchlarimizning shonli rivojlanish yo‘li. Ortimizga boqib, sarhisob qilsak, faxrlansak arziydigan ulkan ishlar ko‘p. Tarix uchun qisqa bu davrda mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligi, sarhadlarimiz daxlsizligini, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini himoya qilishga qodir bo‘lgan, zamonaviy, har tomonlama yaxshi qurollangan, hech kimdan kam bo‘lмаган milliy armiyamizni shakllantirish bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlis parlamentiga qilgan murojaatnomasidagi “Dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar yaqin-uzoq mintaqalarda kuzatilayotgan ziddiyat va to‘qnashuvlar sharoitida biz yurtimizda

tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi ishlarimizni yanada jadallashtirishimiz lozim. Kelgusi yilda mamlakatimiz mudofaa salohiyatini rivojlantirish bo'yicha islohotlarimizni davom ettiramiz" - degan gaplarida yurt tinchligi va ravnaqi yo'lidagi jonkuyarlikni, shijoatni ko'rish mumkin. Yurtboshimiz shuningdek, Qurolli Kuchlarimiz qudratini, qo'shirlarning professional va jismoniy salohiyatini yuksaltirish, yoshlарimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlariga alohida e'tibor qaratilishini ham alohida ta'kidlab o'tdi.

Darhaqiqat, keyingi uch-to'rt yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tash tizimini yanada nufuzini oshirishda, shuningdek, harbiy xizmatchilar tomonidan o'z muqaddas burchini sidqidildan ado etib, har qanday xavf-xatarga munosib zarba bera oladigan qudratli, tezkor va samarali kuchga aylanishiga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

2018-yil 4-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. 2019-yil 7-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining ma'naviya-ma'rifiy faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'ridagi"gi qarorlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy xizmatga chaqirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4630 qarorining qabul qilinishi O'zbekiston xalqida, ayniqsa, yoshlар o'rtasida yana bir

karra milliy armiya bilan faxrlanish tuyg‘usini, Vatan himoyachisidek sharaqli kasbga hurmat-ehtirom hissini uyg‘otishga xizmat qilishi shubhasiz. Mazkur qarorda harbiy xizmatga nomzodlarni tanlab olishda yanada samarali tizim ishlab chiqish, Qurolli Kuchlarning jangovar tayyorgarligi va salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish haqidagi maqsad va vazifalar qamrab olingan. Unda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safini har tomonlama yetuk, sog‘lom, jismonan baquvvat, intellektual salohiyatli yoshlar bilan to‘ldirish, ularning ongida milliy g‘urur, ona yurtga sadoqat va vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirish, shuningdek, muddatli harbiy xizmatga chaqirilayotgan yoshlar bilan Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk davlat arboblari va sarkardalarimiz va ulug‘ ajdodlarimiz haqida davra suhbatlarini tashkil etish kabi dolzarb masalalar ilgari surilgan.

Darvoqe, ma’naviyatli insonda Vatanni himoya qilish qudrati yuksak bo‘ladi. Milliy armiyamizda ma’naviy tarbiya sohasida ko‘plab ishlar amalga oshirilib, harbiy xizmatchilar ongiga, tafakkuriga milliy istiqlol g‘oyalari chuqur singdirib kelinayotgani natijasida, bugun shuni faxr va g‘urur bilan ayta olamizki, Qurolli Kuchlar safidagi o‘g‘lonlarimiz yuksak aql-zakovati, intellektual salohiyati, o‘z xalqiga sadoqati kabi olijanob fazilatlari bilan ajralib turadi. Harbiy xizmatchilarning ma’naviy tarbiyasi sohasida oldimizda turgan muhim vazifalarni hal etishda nafaqat harbiy xodimlar, balki el-yurtimizga taniqli, katta hayot tajribasiga ega ziyolilar, olimlar, yozuvchilar ham salmoqli hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Vatan nomiga sifat beradigan bo'lsak, eng qaynoq so'zlarimiz ham kamlik qilishi mumkin. Vatan shunday bir so'zki, uning nomini yurakka bitish lozim. Yuragida Vatan nomi bo'lgan insonning jur'ati o'tkir, shijoati jilovsiz, qat'iyati metindek mustahkam bo'ladi.

Tarixda Vatan qahramonlari ko'p bo'lgan. Ular haqida bitilgan dostonlarni tinglab minglab vatanparvar o'g'lonlar yetishdi. Shulardan biri Alpomish haqida to'xtalishni joiz deb bilaman. Alpomishning kuch-quvvati yuragida. Alpomishning butun matonati ana shu yurakdagi kuch-quvvatdan, yurakdagi o't, olovdan tug'ilgan. Shu olov uni o'z yurti, oilasi, or-nomusini himoya qilishga undaydi, uni o'z Vatanining xaloskoriga aylantiradi.



Qurolli Kuchlarimiz safida xizmat qilayotgan yigit-qizlarimizni Alpomishning izdoshlariga o'xshatish mumkin. Ularning yuraklari ham xuddi Alpomish bahodirning yuragi kabi baquvvat. Ularning qalbi

sadoqat bilan limmo-lim. Ularning shijoatidan mardlik yog‘ilib turadi. Zero, Vatanni unga bo‘lgan muhabbat asraydi.

Shayx Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi bobokalonlarimizning vatanparvarligi, jasorati, mardligini farzandlarimizga doston qilib yodlatishimiz, ertak kabi ezgulikka aylantirishimiz har birimizning burchimizdir.

Vatanparvarlik haqida gapirilganda sevimli shoirimiz Abdulla Oripovning quyidagi satrlari xayoldan kechadi:

Xalqim, tarix hukmi seni agarda  
Mangu muzliklarga eltgan bo‘lsaydi,  
Qorliklarni makon etgan bo‘lsayding,  
Mehrim bermasmidim o‘sha muzlarga?

Darhaqiqat, rasululloh Muhammad s.a.v hadislarida: «Vatan sarhadini bir kun himoya qilmoq oltmis yillik nafl ibodatidan ortiqroqdur» deyiladi.

Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘lining “Hurriyat berilmas, olinur!” Abdurauf Fitratning: “Vatan – u mening jonu tanim, sajdagohimdir. U mening to‘lin oyim, tinch-omonligim, izzatim, sharafim. Ka’bam, qiblam hamda gulistonimdir... Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq – mening o‘limim, sening uchun o‘lmoq – mening tirikligimdir”, -deya qilgan xitoblari ularning Vatanga bo‘lgan muhabbati, Vatanga bo‘lgan iymoni kay darajada kuchli bo‘lganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda mahalla, maktab va sport maskanlarida o‘zlarini harbiylardek tutib, tengdoshlariga qo‘rqmasligini, botirligini namoyish

etmoqchi bo‘layotgan bolajonlarni ko‘rib ko‘zimiz quvonadi. Ular yurtimizning ertangi egalari, bo‘lajak Vatan himoyachilari, bo‘lajak chegarachilarimizdir.

Bizning qudratimiz hozirda ularning kichik jussalarida, pok qalbida ulg‘aymoqda. Vatanparvarlik yosh avlod: yigit va qizlarimiz bilimi va bilagida kamolga to‘lmoqda, ularning yuragida yashamoqda. Zero, bizdan keyin ham harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiya olgan, Vatanparvar avlod ulg‘ayar ekan, kelajakda ham mamlakatimiz shunday tinch va osoyishta bo‘lib, barqaror taraqqiy etishiga ishonamiz.



## **1.2-§. Umumiy o‘rtta ta’lim mакtablarida «Vatan himoyachilari» mavzusida o‘tkaziladigan bir soatlik tarbiyaviy soat ishlanmasi**



**Tashkiliy ishlar:** Bayramona bezatilgan sahna. To‘rda Vatanimiz himoyachilari, davlatimiz qurolli kuchlari aks etgan, «Mardlar qo‘riqlaydi Vatanni!», «14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni» singari shiorlar osilgan plakatlar.

Tadbir uchun faxriy mehmonlar sifatida harbiy xizmatchilar, ichki ishlar xodimlari va mahalla posbonlari taklif etilgan.

Marsh sadolari ostida ikki boshlovchi sahnaga chiqadi.

**Birinchi boshlovchi:** – Assalomu alaykum, osuda hayotimizning posbonlari, hurmatli otaxonlar, mehri ummon onaxonlar, ustoz-murabbiylar! Sizni bugungi davramizning aziz mehmoni sifatida ko‘rib turganimizdan juda xursandmiz.

**Ikkinchi boshlovchi:** – Biz bugun 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining (*aniq yili aytildi*) yillik to‘yini nishonlash maqsadida ushbu koshonaga yig‘ildik. E’tiboringizga «Bizlar – kichik askarlar» mavzusidagi tadbirni havola qilamiz.

**Birinchi boshlovchi:** – Dunyoda «Vatan» so‘zidan aziz va yurakka yaqin kalom topilmagani kabi, Vatan himoyachisi bo‘lishdan ortiq shon-sharaf ham yo‘q. Mazkur tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, asrlar osha ajdodlarimiz o‘gitlarida, xalqimizning bugungi bunyodkorlik ishlarida yashab kelmoqda.

**Ikkinchi boshlovchi:** – Bu bayram – el-yurtga sadoqat bayrami. Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz mustaqilligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligining, kelajagi buyuk davlat barpo etayotgan O‘zbekiston fuqarolarining tinch-osoyishta hayoti, bunyodkorlik yo‘lidagi mehnati xavfsizligining kafolatidir.

**Birinchi boshlovchi:** – Vatan himoyachisi deganda ko‘z o‘ngingizda kimlar gavdalanadi?

**1-o‘quvchi:** – Men muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan akamni ko‘z oldimga keltiraman.

**2-o‘quvchi:** – Kursantlarga harbiy bilim berib kelayotgan dadamni birinchi navbatda eslayman.

**3-o‘quvchi:** – Hozirgi kunda nafaqadagi bobom ham Vatan himoyachisi bo‘lgan.

**4-o‘quvchi:** – Vatan himoyachisi deganda ko‘z o‘ngimizda, eng avvalo, qomatiga harbiy libos yarashgan, tug‘ilgan yurti va oq sut

bergan xalqini jondan sevuvchi, zamonaviy harbiy bilim va ko‘nikmalarga ega, tinchlik va barqarorlikni saqlashdek oljanob maqsad yo‘lida har qanday jasoratga tayyor botir o‘g‘lonlar namoyon bo‘ladi.

**Birinchi boshlovchi:** – Har birimiz yaxshi xulq va a’lo baholarimiz bilan Vatanga sodiq farzand ekanligimizni ko‘rsatamiz. Hozirgi videorolikda ham bunga guvoh bo‘lamiz. (*«Vatanimga xizmat qilaman» videoroligi namoyish etiladi*).

**Ikkinci boshlovchi:** – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida «O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar», deyilgan.

**Birinchi boshlovchi:** – Vatan himoyasi haqida shoirlar ko‘p she’rlar bitgan. O‘quvchilarimiz yod olgan ana shunday she’rlarni aytishadi. (*Ular shoir Rauf Tolibning «O‘zbek askari so‘zi» nomli she’rini o‘qishadi*).

### **1-o‘quvchi:**

Men askarman, doimo  
Hushyorlik menga qurol.  
Darrov sezaman, hatto  
Shitirlasa, gar shamol.

### **2-o‘quvchi:**

Axir ona -Vatanim  
Tikkan menga ko‘zini,  
Fido etib bu jonim,  
Oqlayman yurt tuzini.

### **3-o‘quvchi:**

Qo‘riqlayman el tinchin,  
Tonglarning kulgusini.  
Keksalar baxt, sevinchin,  
Go‘daklar kelgusini.

### **4-o‘quvchi:**

Mustaqil ona-Vatan  
Mening ko‘z qarog‘imda.  
Axir shu yurt, shu chaman,  
O‘sirdi quchog‘ida.

**Birinchi boshlovchi:** – Askar – mard, jasur, epchil, kuchli yigit degani. Sinfimizning o‘g‘lonlari Vatanimizning bo‘lajak posbonlaridir. Ular hozir jasur askar bo‘lish orzusida.

**Ikkinci boshlovchi:** – Ular ishtirokidagi sahna ko‘rinishini tomosha qiling. (2010-yil 12-yanvarda ochilgan «Vatanga qasamyod» monumentining surati oldida ishtirokchilar davlatimiz bayrog‘ni o‘pib, Vatan himoyasi uchun, qutlug‘ zaminning har qarich tuprog‘ini asrash uchun tayyorman, deb tiz cho‘kib qasamyod qilishadi).

**Birinchi boshlovchi:** – Bugungi kunda nafaqat mard yigitlar, balki jasoratlari qizlar ham Vatan himoyasi, el kori uchun bel bog‘lab xizmat qilmoqda. Ular haqida sinfimiz qizlari she’r yod olishgan. Marhamat!

### **1-o‘quvchi:**

To‘marisning avlodlari asli sizlar,  
Oybarchinday shijoatli, shahdli qizlar.  
Qasamyodga sodiq qutlug‘ ahdli sizlar,  
El posboni libosini kiygan qizlar.

## **2-o‘quvchi:**

Baxtlisizlar kun-tun elga tinchlik so‘rab,  
Lekin doim yurolmaysiz o‘ynab-yayrab.  
Yurtni ko‘proq sevgim kelar sizga qarab,  
El posboni libosini kiygan qizlar.

## **3-o‘quvchi:**

Yelkangizda yulduzchalar porlab turar,  
Sizni mudom yorug‘likka chorlab turar.  
Siz kulganda osoyishta olam kular  
El posboni libosini kiygan qizlar.

**Birinchi boshlovchi:** – Biz To‘maris, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi dovyurak sarkardalarning vorislarimiz. Ishonch bilan aytamizki, bobolarimizga munosib, Vatanimizga sodiq farzand bo‘lamiz.

**Ikkinci boshlovchi:** – Tadbirimizga tashrif buyurgan faxriy mehmonlarimiz harbiy xizmatchilar, ichki ishlar xodimlari va mahalla posbonlariga so‘z navbatini beramiz. (*Ular ogohlik, tinchlikning qadriga yetish kerakligi haqida gapirishadi*).

**Birinchi boshlovchi:** – Bayram tadbirimiz ham nihoyasiga yetdi. Barchangizni mamlakatimiz hayotidagi qutlug‘ sana — Vatan himoyachilari kuni va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari (*aniq yili aytildi*) yilligi bilan chin qalbdan yana bir bor muborakbod etamiz.

**Ikkinci boshlovchi:** – Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, xalqimiz omon bo‘lsin.

**1.3-§. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 14-yanvar «Vatan himoyachilari kuni»ga bag‘ishlab o‘tkaziladigan «O‘zbekiston askarlari» nomli ma’naviy-ma’rifiy tadbir ssenariysi**



**Tashkiliy ishlar:** Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar zali bayrmona bezatiladi. O‘zbekiston Respublikasi davlat ramzlari, Vatan himoyachilari bo‘lmish yosh askarlar plakatlari namoyish etilgan. Sahnaning o‘ng tomonida davlatimiz bayrog‘i qo‘yilgan.

Sahnaga Vatanni madh etuvchi kuy orqali ikki boshlovchi va yosh askarlar libosida o‘quvchilar chiqadilar.

**Birinchi boshlovchi:** – Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar! Qadrli mehmonlar, aziz o‘quvchilar!

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi ijro etiladi.

O‘quvchilar sahnaga birin-ketin chiqib davlat ramzlari haqida so‘zlaydilar:

- 1991-yil 1-sentabr O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligiga erishgan kun.
- Mustaqil davlatimizning o‘z gerbi bor.
- O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘iga ega.
- O‘zbekiston sportchilarining g‘oliblik shohsuppasiga ko‘tarilganlariga yangrovchi madhiyamiz bor.

Yosh askarlar Vatanni madh etuvchi she’r aytadilar:

### **1-yosh askar:**

Vatan deya ko‘z ochsam,  
Shirin o‘yga tolaman.  
Shunday go‘zal zamonda,  
Yayrab nafas olaman.

### **2-yosh askar:**

Yurtim deya she’r yozsam,  
Tanda jonim yayraydi.  
Quvonchga to‘lib bu dam  
Sevin chyoshim tinmaydi.

### **3-yosh askar:**

Azizlarim, aytинг  
Bu ishtiyоqmi yo havas  
Vatan degan tuyg‘uga  
Bo‘lgim kelar hamnafas.

### **4-yosh askar:**

Maqsadimiz yagona,  
Keling birdam bo‘laylik,  
Shu el, shu diyor uchun  
Yonib xizmat qilaylik!

She’rdan so‘ng yosh askarlar ijrosida «Askarlar» qo‘sishiga kuyylanadi.

**Birinchi boshlovchi:** – Davlatimiz o‘z havfsizligini ta’minalash, yurt tinchligini saqlash maqsadida o‘z armiyasiga va qurolli kuchiga egadir.

**Ikkinchi boshlovchi:** – O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari 1992-yil 14-yanvarda tashkil topgan.

O‘quvchilar «Iftixor» she’rini aytishadi.

### **1-o‘quvchi:**

Ulg‘aydim, vaqt o‘tdi, lahzadek go‘yo,  
Qo‘limni duoga ochayotirman.  
Ozodlik, ozodlik, sening qadringni  
Yurakdan his etib yashayotirman.

### **2-o‘quvchi:**

Xalqim, har qadaming asrlarga teng,  
Soniyalar darak berar yillardan.  
Hurriyat, ozodlik deya hayqirmsam,  
Aks sadolar kelar Bobo tog‘lardan.

### **3-o‘quvchi:**

Ana, kelayapti mo‘ysafid bobo,  
Qo‘lidan yetaklab nabirasini.  
Cheku chegarasi yo‘q quvonchining,  
Topganday yo‘qotgan xazinasini:

### **4-o‘quvchi:**

«Bolam, qadriga yet istiqlolning sen,

Bilki, shodligimdan tanda titroq bu.  
Har bir zarrasini asra jon kabi,  
Ulug‘lar kamolga yetgan tuproq bu!».

### **5-o‘quvchi:**

Keksalar davraning to‘rida mudom,  
Etibor, g‘amxo‘rlik murg‘ak jonga.  
Asrab-avaylaylik onamiz kabi,  
Aslo ko‘z tegmasin O‘zbekistonga!

**Birinchi boshlovchi:** – O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari maxsus qo‘shinlar va havo hujumidagi mudofaa qo‘shinlariga va boshqa harbiy qismlarga ega.

**Ikkinci boshlovchi:** – Bundan ko‘rinib turibdiki bizning qudratli armiyamiz bizning tundagi va kundagi tinchligimizni, qora niyatli insonlarni hujumidan har tomonlama himoya qilishga qodir ekan.

O‘g‘il bolalar harbiycha kurash usullaridan va mashqlaridan namoyish etadilar.

Namoyish yakunida quyidagi she’rlar o‘qiladi:

### **1-o‘quvchi:**

Mustaqil burch - Vatanni,  
Matonat-la asramoq!  
Mustaqil yurt jon-tanni,  
Mehr-u ont-la asramoq!

### **2-o‘quvchi:**

Vatan – mening onamsan, Issiq  
quchog‘ing.  
Olamda yagonasan  
Aziz tuprog‘ing.

### **3-o‘quvchi:**

Tug‘ilib o‘sdim bu Vatanda,  
Vatanimmisli yo‘q jahonda!  
Tog‘laridan konlar chiqar,  
Yerlaridan donlar chiqar.

**Birinchi boshlovchi:** – Tinchlik bebahon ne’mat. Farovon hayotda biz o‘quvchilarni yaxshi va osoyishta, barkamol insonlar bo‘lib kamol topishimiz uchun bizga nima kerak – ?

**Barcha o‘quvchilar bir ovozdan:** *Tinchlik! kerak.*

**Ikkinci boshlovchi:** – Yoshi ulug‘ bobo-yu, buvijonlarimiz, mehribon onalarimiz tongdan to tungacha duolari faqat bu – ?

**Barcha o‘quvchilar bir ovozdan:** *Tinchlik! so‘zidir.*

Tadbiriga tashrif buyurgan faxriy mexmon tomonidan tadbir ishtirokchilariga dil izxorlari bildiriladi.

Shundan so‘ng o‘quvchilar tomonidan: Aziz ustozlar, qadrli mehmonlar hamda o‘quvchilar!

Bugungi Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan tadbirimiz o‘z nixoyasiga yetdi. Yurt tinchligi yo‘lida barcha Vatan ximoyachilariga tinch-totuvlik, inson uchun eng kerakligi sog‘liq tilaymiz, deya fikr bildiriladi hamda **o‘quvchilarning xor jamoasi ijrosida «Vatan» qo‘shig‘i ijrosi bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbir yakunlanadi.**

## **1.4-§. «Men askar bo‘laman» o‘yin-musobaqasi dasturi**



**Tashkiliy ishlari:** Sport zal yoki ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar zali bayrmona bezatiladi. O‘zbekiston Respublikasi davlat ramzları, Vatan himoyachilari bo‘lmish yosh askarlar plakatlari qo‘yiladi.

Fon musiqasi yangraydi va mehmonlar kutib olinadi.

Jangovor kuy orqali ikki boshlovchi saxnaga ko‘tariladi.

**Boshlovchi:** Xayrli kun, aziz bolalar va aziz o‘qituvchilar!

Qadim qadim zamonlardan beri kuchli va jasur xalqimiz doimo o‘z Vatanini doimo himoya qilib kelgan. Bugungi kunda bizning vazifamiz ota-bobolarimizning harbiy jasorati va qahramonliklari xotirasini asrab-avaylash, ularning oljanoblik, azmu shijoat va jasoratidan ibrat olib Vatanga sadoqatli farzand bo‘lishdir. Aynan shu maqsadda bugungi kunda «Men askar bo‘laman» o‘yin-musobaqasi o‘tkazilmoqda.

Xo‘sh, diqqat qiling! Men hammani o‘rnidan turishni so‘rayman.

*O‘zbekiston Respublikasi Madhiyasi yangraydi.*

**Boshlovchi:** – O‘zbek xalqining Vatanga bo‘lgan muhabbati fidokorona va cheksizdir. Xalqimiz Vatan xavf ostida bo‘lganda, doimo o‘limga e’tibor qilmay, butun kuchini uning himoya qilishga bag‘ishlagan. Darhaqiqat, bu jasur va dovyurak xalqimiz uchun yurak amri bo‘lib kelgan. Tarixan, qanday qiyinchiliklar bo‘lmasin, Vatanimiz ota-bobolarimiz zamini bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi.

Millatimiz qahramonlari, bugungi va kelajakdagi Vatan himoyachilariga shon-sharaflar bo‘lsin!

*Shu o‘rinda o‘quvchi-yoshlar tomonidan O‘zbekiston xalq shoiri  
To ‘ra Sulaymonning «Askarlar» nomli jangovar qo‘srig‘i kuylanadi.*

**Boshlovchi:** – Xurmatli o‘quvchi-yoshlar Sizlar bizning Vatanimiz - O‘zbekistonning kelajakdagi himoyachilarisiz. Himoyachilar kuchli, jasur, epchil va albatta aqli bo‘lishi kerak. Buning uchun esa, har bir yosh yigit-qiz bolalikdan o‘z irodasini mustahkamlashi, o‘z shaxsiyatida jasorat, oljanoblik, qat’iyatlilik va halollikni rivojlantirishlari kerak.

Bolalar, bugun biz «*Men askar bo‘laman!*» o‘yin-musobaqasini o‘tkazamiz.

Topshiriqni bajarish orqali siz yulduzlarga ega bo‘lasiz va tadbirimiz oxirida to‘plangan yulduzlar soniga qarab g‘olibni aniqlaymiz.

**Boshlovchi:** – Askar tez bo‘lishi kerak. Agar tunda signal eshitilsa, u yotoqdan sakrab, bir daqiqada kiyinishi kerak. Keling, askar kabi tez kiyinishga harakat qilaylik.

Birinchi musobaqaga har biri 10 kishidan iborat 2 ta jamoani taklif qilaman.

## **1-Shart «Jangovar oglantirish»**

**Rekvizitlar:** 2 ta bayroqcha, 2 ta harbiy kiyim, 2 ta avtomat maketi, 2 ta stul, 2 ta halqa (*tunnel uchun*).

Stulga 2 ta avtomat maketi, 2 ta harbiy kiyim qo‘yiladi. Signal berilishi bilan har ikki jamoadagi birinchi raqamdagи ishtirokchilar kiyinadi, tunnellarga emaklaydi, nishonni aylanib chiqadi va qo‘lidagi bayroqchani keyingi ishtirokchi - sherigiga tutqazadi. Uning sherigi ham xuddi shu vazifani bajaradi.

Vazifani birinchi bo‘lib tugatgan jamoa g‘alaba qozonadi (*yulduzcha oladi*).

**Shart yakuni.** *Fon, ritmik musiqa tovushlari. Mazkur shartda yutgan jamoaga yulduzlar topshiriladi.*

**Boshlovchi:** – Harbiy xizmatchilar nafaqat tez kiyinishni, balki nishonga aniq otishni ham bilishlari kerak. Endi siz qanday otishingizni tekshiramiz. Shunga ko‘ra har ikki jamoani sahnaga taklif qilaman.

## **2-Shart «Xandaqda olov bor»**

**Rekvizitlar:** 2 ta matras, 2 ta halqa, 10 ta shar - har bir jamoa uchun.

Har bir jamoa a’zolari navbatma-navbat egilgan holatdan nishon (ikki-uch metr masofadagi halqa) ga to‘p tashlashadi. Eng ko‘p zarba bergen jamoa g‘olib hisoblanadi.

Vazifani birinchi bo‘lib tugatgan va eng ko‘p xalqaga to‘p tushura olgan jamoa g‘alaba qozonadi (*yulduzcha oladi*).

**Shart yakuni.** *Fon, ritmik musiqa tovushlari. Mazkur shartda yutgan jamoaga yulduzlar topshiriladi.*

**Boshlovchi:** – Harbiy xizmatchilar nafaqat tez kiyinishi, nishonga aniq urushi balki zukko va topqir ham bo‘lmog‘i lozim. Shuning uchun ham 3-shartda aynan sizlardagi xushyorlik, topqir va zukkolik qobiliyatları tekshiriladi. Shartni bajarish uchun har ikki jamoa sahnaga taklif etiladi.

### **3-Shart «Nima o‘zgardi?»**

**Rekvizitlar:** *O‘quv ekrani va unga yuklangan turli predmet rasmlari.*

**Boshlovchi:** – Oldingizda turgan ekranida turli xil narsalar bor. Ularga bir daqiqaga qarang, ularni eslab qolishga harakat qiling, keyin yuz o‘giring. Men bir nechta narsalarni almashtiraman va nima g‘oyib bo‘lganini aytishingiz kerak.

Musobaqa amalga oshiriladi va eng ko‘p nima o‘zgarganini aniqlay olgan jamoa g‘alaba qozonadi (*yulduzcha oladi*).

**Shart yakuni.** *Fon, ritmik musiqa tovushlari. Mazkur shartda yutgan jamoaga yulduzlar topshiriladi.*

### **4-Shart «Jangovor qo‘shiq»**

**Boshlovchi:** – Har bir askar qo‘shiq ayta olishi, jamoaga jangovor ruh bera olishi lozim. Shunga ko‘ra qatnashchi jamoalar o‘zlari tanlagan jangovor qo‘shıqlarını safda bir ovozdan ijro etadilar.

Eslatma, qo‘shiq jangovor ruhda bo‘lishi, har bir jamoa a’zosi uni ijrosida qatnashishi, qo‘l va tana harakatlari qo‘shiq ohangi va ritmiga

mos kelishi hamda eng asosiysi qo'shiq ijrosi hakamlar xay'ti va tomashabinlarga ruh bera olishi lozim.

Jangovor qo'shiqlar ijro etilgach eslatmada keltirilgan mezonlar asosida baholanadi va yuqori baho olgan jamoa g'alaba qozonadi (*yulduzcha oladi*).

**Shart yakuni.** *Fon, ritmik musiqa tovushlari. Mazkur shartda yutgan jamoaga yulduzlar topshiriladi.*

**Boshlovchi:** – Hurmatli musobaqamiz ishtirokchilari va aziz tomashabinlar! Albatta, butun musobaqa davomida har bir shart yakuniga ko'ra g'olib bo'lgan jamoa yulduzlar yig'ib borganiga guvoh bo'ldingiz.

Endi xal qiluvchi lahzalar yetib keldi. Qatnashchi jamoalardan o'zlari yiqqan yulduzlarni chiqarishlarini so'rayman.

Yulduzlarining sonini hisoblang(*yulduzlar sanaladi*).

Umumiy xisobla g'olib bo'lgan jamoa estalik sovg'alari va musobaqa kubogi bilan taqdirlanadi.

**Oldindan tayyorlangan ishtirokchi jamoalar birgalikda quyidagi jangovor chaqiriqni aytishadi:** Bugun biz do'stlik, o'zaro tushunish va mehnatsevarlik haqiqiy mo'jiza yarata olishini ko'dik.

G'alaba faqat bitta vazifani – yer yuzida, o'z oilasida hayotni, tinchlikni saqlashni birgalikda va birgalikda bajarganlarga beriladi.

Urush bolalarga ham, kattalarga ham kerak emas!

U sayyoramizdan yo'q bo'lib ketsin!

Dunyoda tinch yulduzlar porlasin, Do'stlik chegara va to'siq bilmasin.

Biz tinch osmon ostida yashashni va xursand bo‘lishni va do‘st bo‘lishni xohlaymiz!

*Fon, ritmik musiqa tovushlari sadosi ostida boshlovchi musobaqani yakunlaydi:*

**Boshlovchi:** – Bolalar, bizning uchrashuvimiz o‘z nihoyasiga yetdi. Biz bilinki, faqat tinchlikda yashashni xohlaymiz. Biz yer yuzida umuman urush bo‘lmasligini orzu qilamiz. Ammo bizga har doim kuchli, jasur va oljanob yigitlar - Vatan himoyachilari kerak bo‘ladi. Bolalar, siz bizning Vatanimiz himoyachilari ekanligingizni unutmang. Bir-biringizni hurmat qilishingizni, bir-biringizga g‘amxo‘rlik qilishingizni tilayman, shunda biz katta kuchga ega bo‘lamiz. Xayr. Salomat bo‘ling.



## 1.5-§. «Bo‘lajak Vatan posbonlari» o‘yin-musobaqasi dasturi



Bu o‘yinni harbiy qism va muassasada tashkil etilgan targ‘ibot-tashviqot guruhi tomonidan mактабгача ta’lim muassasalari, umumta’lim maktablari, litsey, kollejlarda xonada, zalda yoki ochiq havoda o‘tkazish mumkin.

**O‘yin boshlanishida sahna (yoki davra) ga o‘yin boshqaruvchisi chiqib keladi.** Boshqaruvchi o‘yin-musobaqada ishtirok etishni xohlagan o‘quvchilarni sahna (davra)ga taklif etadi. Musobaqada ishtirok etishni xohlovchilarni tanlash uchun musiqachilar harbiy qo‘sliqlar yoki ularning kuylarini eshittirishlari so‘raladi.

Turli kinofilmlar, konsertlar, kliplardan harbiy qo‘sliqlar, kuylar yangraydi. O‘quvchilar kuy va qo‘sliqlarning mazmuniga qarab sahna (davra)ga chiqadilar. Masalan, «Tankchilar» qo‘srig‘i ijro etilganda, o‘yin-musobaqada «tankchi», «Chavandozlar» qo‘srig‘ida

«chavandoz», «Uchuvchilar» qo’shig‘ida «uchuvchi» bo‘lib ishtirok etmoqchi bo‘lgan o‘quvchilar va hokazo (yoki faqat o‘yinda ishtirok etishga xohish bildirgan o‘quvchilar) sahnaga chiqishlari mumkin.

Ishtirokchilar sahna (davra)ga to‘planishgach (20 tacha), ular ikki guruhga ajratiladi. Guruhlardagi ishtirokchilar soni bir xil bo‘lib, harbiylar har ikkala guruhda bir xil sonda, masalan, har ikki guruhda bittadan uchuvchi, bittadan oddiy askar, tankchi, oshpaz va boshqalar bo‘lishi kerak. Ishtirokchilar soni 20 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiq.

O‘yin boshlanishi oldidan boshqaruvchi hay’at a’zolari bilan tanishtiradi.

**Boshqaruvchi:** – Ikkala guruh, tayyor ekan, o‘yin davomida biz ularni harbiychasiga «guruh» deb nomlaymiz. Endi, Sizlarga birinchi topshiriqni beraman. Men uchgacha sanagunimcha, har bir guruh, bo‘y-bo‘yi bilan bir qatorga saf tortishi zarur.

Ushbu vazifa boshqaruvchi tomonidan beriladi. Guruhlar saf tortadilar. Boshqaruvchi har bir guruh, a’zolaridan birini guruh kattasi (komandiri) etib tayinlaydi (yoki guruh, a’zolari tomonidan saylanishi mumkin. Hay’at a’zolari guruhlarning saflanishini baholaydilar. Baholar qo‘yib boriladigan maxsus stendda birinchi ballar paydo bo‘ladi.

**Boshqaruvchi:** – Har ikkala guruh o‘yin-musobaqani boshlanishiga tayyor. Endi biz ularni harbiy xizmat bo‘yicha bilimlarini tekshiramiz. Qani aytingchi, har kuni harbiy xizmat nimadan boshlanadi?

**O‘yin ishtirokchilari:** – Ertalab maxsus signal yordamida o‘rindan turish va badan tarbiya qilishdan boshlanadi.

**Boshqaruvchi:** – Biz ham o‘yin-musobaqani badan-tarbiyadan boshlaymiz.

Boshqaruvchi har bir guruhgaga arqondan qilingan xalqani beradi. Guruhning har bir a’zosi navbatma-navbat arqon xalqani o‘zlaridan o‘tkazish bir-birlariga uzatishlari kerak. Arqon xalqa bir tomondan pastga qarab kiyiladi so‘ng oyoqdan o‘tkazilib keyingi askarga uzatiladi. Hay’at a’zolari g‘oliblarni aniqlaydilar. Maxsus stendda ballar qo‘yiladi.

**Boshqaruvchi:** – Bu o‘tkazilgan musobaqa guruhlarning o‘yinni davom ettirishga tayyor ekanliklarini ko‘rsatdi. Xo‘s, badan tarbiyadan so‘ng nima qilinadi?

**O‘yin ishtirokchilari:** – Yuvinish.

**Boshqaruvchi:** – U holda kim tezroq yuvinib artinadi? Guruh a’zolari askarlarning ertalabki yuvinish va artinish holatlarini pantomima (ovozsiz harakatlar) shaklida namoyish etadilar.

Hay’at a’zolari pantomima harakatlarini ko‘radilar va baholaydilar. Maxsus stendda mos ballar paydo bo‘ladi.

**Boshqaruvchi:** – Askarlar keyin nima qiladilar?

O‘yin ishtirokchilari: Oshxonaga ertalabki nonushtaga boradilar.

**Boshqaruvchi:** – Askarlar, odatda, oshxonaga qanday boradilar?

**O‘yin ishtirokchilari:** – Askarlar oshxonaga saf tortib, qo‘sishq aytib boradilar.

**Boshqaruvchi:** – U holda har bir guruh alohida-alohida bo‘lib oshxonaga saf tortib, qo‘sishq aytib boring. Qaysi guruhi bu topshiriqni

yaxshi bajarar ekan? (har bir guruh saf tortib qo'shiq aytib sahnada yuradilar).

Topshiriq bajariladi, baholanadi, maxsus stendda ballar paydo bo'ladi.

**Boshqaruvchi:** – Xo'sh, ertalabki nonushtadan so'ng askarlar nima bilan shug'ullanadilar?

**O'yin ishtirokchilari:** – Turli mashg'ulotlarda qatnashadilar.

**Boshqaruvchi:** – Men ham hozir Sizlarni turli mashg'ulotlar o'tkaziladigan xonalarga taklif etaman. Birinchi bo'lib aloqachilarni. taklif etamiz. Kim arqonni tezlik bilan yog'ochga o'ray oladi? (boshqaruvchi 5-6 metr uzunlikdagi ikki tomoniga yog'och o'rnatilgan arqonni aloqachilarga beradi va berilgan signal asosida ularning ikki tomondan markazga harakat kilib yurishlari uchun o'rtada uchrashuv joylarini belgilab beradi. Arqonni yog'ochga o'rab belgilangan markazga birinchi bo'lib yetib kelgan aloqachi g'olib hisoblanadi).

Topshiriq bajariladi, baholanadi, stendda ballar paydo bo'ladi.

Boshqaruvchi davraga piyoda askarlarni taklif etadi (2 kishi). Kim-kimni torta oladi - tortishmachoq vazifasini qo'yadi.

Topshiriq bajariladi, baholanadi, stendda ballar paydo bo'ladi.

Boshqaruvchi endi desantchilar mashg'ulotini ko'rishni taklif etadi va desantchilarga har bir desantchi qo'lidagi sharni o'zidan uzokroqqa puflab uchirish topshirig'ni beradi.

Sharni puflab eng uzoqqa uchira olgan desantchi g'olib hisoblanadi.

Topshiriq bajariladi, baholanadi, stendda ballar paydo bo'ladi.

Boshqaruvchi snayperlar mashg‘ulotiga o‘tish maqsadida ularga kichik koptokchani doira (yoki xalqa) ichiga tushirish topshirig‘ini beradi. Bu topshiriq uch marta bajariladi.

**Boshqaruvchi:** – Menimcha, tushki ovqatlanish vaqtি ham bo‘ldi. Demak, navbat oshpazlar musobaqasiga. Musobaqaga har bir guruhdan bittadan oshpaz taklif etiladi va ular oshxonada askarlar uchun tayyorlanadigan taomlarning turlarini ketma-ket to‘xtamay aytishi lozim. To‘xtamay taom turini ko‘p ayta olgan oshpaz g‘olib hisoblanadi.

Topshiriq bajariladi, baholanadi, stendda ballar paydo bo‘ladi.

Boshqaruvchi davraga har bir guruhdan bittadan mina qo‘yuvchi va bittadan saper (minadan tozalovchi)ni taklif etadi. Mina qo‘yuvchilar kubiklar yoki «Gorodki» o‘yinida foydalaniladigan predmetlarini yerga har xil tartibda qo‘yib chiqadilar. Saperchilar esa ko‘zlari bog‘langan holda yurib, ularni terib chiqadilar, ya’ni yerni minadan tozalaydilar.

Topshiriq bajariladi, baholanadi, stendda ballar paydo bo‘ladi.

**Boshqaruvchi:** – Kechki dam olish vaqtি ham bo‘ldi. Har bir guruh dam olish vaqtini qanday o‘tkazish mumkinligini o‘ylab ko‘rib, ko‘rsatsalar yaxshi bo‘ladi. Askarlar bironbir voqeа yoki ertakni yoki askarlar hayotidan lavha ijro etishlari, ko‘rsatishlari, pantomima qilishlari mumkin.

Topshiriq bajariladi, baholanadi, stendda ballar paydo bo‘ladi.

**Boshqaruvchi:** – Askarlar kechki uyquga ketdi (guruh askarlari stillarga joylashib uyquga ketadi) lar. Ular uxbab yotgan vaqtida harbiy qismda qanday kutilmagan voqealar bo‘lishi mumkin?

**O‘yin ishtirokchilari:** – Chaqiriq!

**Boshqaruvchi:** – Demak, bizning askarlar uchun ham - CHAQIRIQ!

Guruh askarlari chaqiriq e'lon qilinishi bilan o'rinalidan turadilar va stullarga ilib qo'yilgan harbiy kiyimlarni tezlik bilan kiyadilar. Tez va to'g'ri kiyina olgan guruh askarlari g'olib hisoblanadi.

Topshiriq bajariladi, baholanadi, stendda ballar paydo bo'ladi.

**Boshqaruvchi:** – Endi barcha askarlar saf torting! So'z hay'at a'zolariga!

Hay'at a'zolari to'plangan ballarni e'lon qiladilar. Mukofotlaydilar. Yakun yasaydilar. Askarlar o'z joylariga qaytadilar.

**Izoh:** Bir soatlik o'yin-musobaqaga mo'ljallangan musobaqalar musiqa sadolari ostida o'tkaziladi. O'yinga mo'ljallangan topshiriqlarni joylardagi imkoniyat, o'quvchilarning qiziqishi va yoshlariga qarab tanlash kerak. Zaruratga qarab musobaqa shartlarning sonini kupaytirish yoki kamaytirish, osonlashtirish yoki qiyinlashtirish mumkin.



## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. “Casestudy” uslubi: nazariya, amaliyat, tajriba. – T.: “Tafakkur qanoti”nashriyoti, 2018.
2. Abdullaeva X.A. Mashg‘ulotlarda faol ta’lim usullaridan foydalanish. – Farg‘ona: FarDU, 2018.
3. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.
4. Azizzxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. – T.: “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti. 2006.
5. Zunnunov A. va boshqalar. Pedagogika tarixi / –T.: Sharq, 2000.
6. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan, 2004.
7. Ishmuhamedov R., Abduqarodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2019.
8. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A. B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari . - T.: “Sano standart” nashriyoti, 2021.
9. Muxina S.A., Solovyova A.A. Sovremennye innovatsionnye texnologii obucheniya. – M.:” GEOTAR-Medija”, 2018.
10. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari . - T.: 2021.
11. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – T.: “Tafakkur-bo‘stoni” nashriyoti. 2011.